

**OILADAGI IJTIMOIY TARBIYA O‘SMIRLAR DEVIANT XULQ-ATVORI
OLDINI OLISH KAFOLATI SIFATIDA**

Olimov Temir Hasanovich

-Osiyo Xalqaro universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

G’afurova Sayyora Jamolovna

- Osiyo Xalqaro universiteti pedagogika-psixologiya yonalishi birinchi bosqich
magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada bola tarbiyasida ota-onalarning umuminsoniylik tamoyillariga amal qilishlari, Psixologiya nuqtai nazaridan, bola ruhiy sog‘lom rivojlanishi va tengdoshlari bilan yaxshi munosabatda bo‘lishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: ota va ona, tarbiya, oilaviy munosabatlar, bola tarbiyasi, qobiliyat, ma’naviyat, mafkura, iroda, jismoniy tarbiya, harakat.

Аннотация: в данной статье родители следуют принципам универсальности в воспитании детей, с точки зрения психологии ребенок имеет здоровое психическое развитие и хорошие отношения со сверстниками.

Ключевые слова: отец и мать, воспитание, семейные отношения, воспитание ребенка, способности, духовность, мировоззрение, воля, физическое воспитание, действие.

Abstract: in this article, parents follow the principles of universality in raising children, from the point of view of psychology the child has a healthy mental development and good relations with peers.

Key words: father and mother, upbringing, family relations, child upbringing, abilities, spirituality, worldview, will, physical education, action.

Aynan oilaviy tarbiya bolaga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi va buni hech qaysi tarbiyaviy muassasa o‘rnini bosa olmaydi.

Bolani tarbiyalash – oilaning baxt-saodatiga, jamiyatning baxtli bo‘lishiga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida bolalarga ko‘p e’tibor berishni talab etadi.

Bolalarni jismonan sog‘lom, aqlli, jamiyatga, odamlarga xizmat qilishidan quvonadigan qilib tarbiyalagan ota-onalar o‘z vazifalarini to‘la-to‘kis bajargan bo‘ladilar.

Afsuski, har doim ham shunday bo‘lavermaydi. Oilaviy munosabatlarning o‘zgarishi, ota va ona o‘rtasidagi o‘zaro kelisha olmaslik, muammolarining kelib chiqishi bola tarbiyasiga yomon ta’sir etadi. Salbiy oqibatlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Natijada, bola ota-ona nazoratidan chetda qoladi.

Har qanday jamiyat va davlatning asosiy vazifalaridan biri bolaning oilada tarbiyalanish huquqini ta’minlashdir. Bolaning ushbu huquqlari Xalqaro hujjatlarda

(BMTning “Bola huquqlari to‘g‘risida” Konvensiyasi), shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilab berilgan. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksida bolaning quyidagi huquqlari asosiy va mustaqil bo‘lib ajralib turadi: oilada yashash va tarbiyalanish huquqi, ota-onva boshqa qarindoshlar bilan muloqot qilish huquqi, o‘zini himoya qilish huquqi, ism, familiya va otasining ismiga ega bo‘lish huquqi. Farzandlikka olish, vasiylik va homiylik, tutingan oila, yetim va ota-onva qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirishning maqbul va o‘zini oqlagan shakllari hisoblanadi.

Mamlakatimizda ota-onva qaramog‘idan mahrum bo‘lgan, yetim bolalar tarbiyasiga turli tarixiy davrlarda jiddiy e’tibor berilgan. Hozirgi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda bolaning ruhiy tarbiyasiga oilaviy tarbiyaning ta’siri muhim ekanligi ta’kidlanayotgan bir paytda mo‘tabar dinimiz islom ilmida ilk davridayoq bolaning oilada tarbiyalanishiga asosiy e’tibor qaratilganligini ham e’tirof etish zarur. Islomda bolani mumkin qadar o‘z onasi emizishi lozimdir deb ko‘rsatiladi. Chunki bola ona suti orqali ham ruhiy, ham biologik oziqa oladi. Qur’oni Karimning Baqara surasi 233–oyatida “Kim emizishni batamom qilishni iroda qilsa, onalar farzandlarni to‘liq ikki yil emizurlar” deb ta’kidlanishi ona sutining bola taraqqiyoti uchun muhimligini ko‘rsatib turibdi.

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam o‘z huzurlarida al-Aqra’ ibn Hobis Taymiy o‘tirganda Hasan ibn Alini o‘ptilar. Shunda u: “Mening o‘nta bolam bor. Ulardan birortasini o‘pganim yo‘q”, dedi. Bas, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam unga nazar soldilar va: “Rahim qilmaganga rahim qilinmas”, dedilar. Yana Oisha roziyallohu anhodan rivoyat qilinadi: “Bir a’robiy Nabiy sollallohu alayhi vasallamning huzurlariga kelib”: “Sizlar yosh bolalaringizni o‘pasizlarmi? Biz o‘pmaymiz”, dedi. Shunda Nabiy sollallohu alayhi vasallam: “Alloh qalbingdan rahmatni sug‘urib olgan bo‘lsa, men nima ham qila olar edim”, dedilar”.

Mazkur hadislar, avvalo, yosh bolalarga rahm qilish, ota-onalar o‘z farzandlariga mehribon bo‘lishlari zarurligi va bu Ollohning rahmati va savobli ish ekanligini anglatadi. Har bir ota-onva o‘z farzandinining tarbiyasi uchun mas’ul ekanligini unutmasligi darkor.

Islom ilmida ota-onalar qo‘lida bolalar aziz omonatdirlar, shuning uchun ularni go‘zal tarbiya etmoq, yaxshi xulqlariga o‘rgatmoq va ko‘rkam odatlarni tushuntirmoq lozimligi uqtiriladi.

Muhammad alayhissalom “Bolalaringiz bilan birga bo‘ling va ularning odobini yaxshilanglar” deya marhamat qilganlarida, bolalarni tarbiyasiga qiziqmaslik va shug‘ullanmaslik turli xil noxushliklarni keltirib chiqarishini nazarda tutganlar.

Hazrati Umarning “Bola otadan qanchalik uzoqlashsa, yomon ishlarga moyil bo‘laveradi, u o‘ziga hamrohni oilaning tashqarisidan izlaydi va bu ko‘pincha yomon oqibatlarga olib keladi” deb ta’kidlashlari ham aynan bola qarovsizligiga, uning oqibatlariga borib taqaladi.

Islom ilmida bola tarbiyasida ota-onaning o‘rni haqida juda ko‘p gapirilgan. Ayniqsa, onaning bola tarbiyasidagi o‘rni haqida alohida uqtiriladi.

Sharq va G‘arbda keng tanilib “Shayx ur-rais” nomiga sazovor bo‘lgan Abu Ali Ibn Sinoning (980-1037) “Tib qonunlari” va “Tadbiri manzil” asarlarida oila, ota-ona hamda bola munosabatlariga oid pedagogik va psixologik qarashlari bayon etilgan. Uning oilani ijtimoiy institut, shaxslararo munosabatlar manbai, o‘zaro ta’sir o‘tkazishning qulay ijtimoiy muhitni, milliy an’analalar ta’sirchanligi, taqlid, yuqish fenomenlari negizi ekanligi to‘g‘risidagi mulohazalari to hozirgi davrgacha o‘z kuchini yo‘qotgani yo‘q.

U bola tarbiyasida ota-onalarning umuminsoniylik tamoyillariga amal qilishlarini ta’kidlaydi. Tarbiyachi, ota-onalarga uni qattiq tan jazosidan farqli o‘laroq, shaxsiy ibrat orqali tarbiyalash ma’qulligini uqtirgan. Ibn Sino oila boshlig‘i oldiga katta talablar qo‘yadi, farzandlarni bir-biriga nisbatan mehr-oqibat tuyg‘usi orqali tarbiyalash, iliq ruhiy muhitni yaratishni uqtiradi. Oiladagi noxush tarbiya faqat shu oilagagina salbiy ta’sir qilib qolmasdan, balki boshqa oilalarga ham xuddi shunday ta’sir qilishini oqilona tarbiya oila baxtining muhim asosi ekanligini ta’kidlaydi. Ibn Sino bola yomon hulq, xislatni egallashini kutmasdan turib, uni ijobiy fazilatlar bilan tanishtirib, bolaga yaxshi odobni singdirish kerak, – deb yozadi. Uning ta’kidlashicha, sharoit (muhit) qanday bo‘lishidan qat’i nazar, farzand kamoloti ota-onalarning asosiy vazifasidir, ular davlat boshlig‘imi yoki jamiyatning oddiy bir a’zosimi, bari bir tarbiya masalasida ular uchun bir xil talab qo‘yilishi kerak, chunki bu ijtimoiy ehtiyojdir.

XII asrning buyuk mutafakkiri va shoiri Yusuf Xos Hojib o‘zining “Qutadg‘u bilig”- “Saodatga boshlovchi bilim” kitobida va undan keyingi qator asarlarida o‘zining etika va oilaviy hayotga oid qarashlarini bayon etadi. Shoirning fikricha, farzand ko‘rish va unga tarbiya berish har bir inson uchun buyuk baxtdir, ularsiz hayotning ma’nosi yo‘q. Lekin bu narsa ota-onaga juda katta mas’uliyat yuklaydiki, uning uddasidan chiqmoq har bir ota-ona uchun ham farz, ham qarzdir. U oilaviy muhitni shaxs axloqiy taraqqiyotining asosi, deb hisoblagan: “Agar bolaning xulqi yomon bo‘lsa, bunda bolaning aybi yo‘q, hamma ayb – otasida” deydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Olimov, T. The role of national spirituality and values in the development of civil culture in future specialists with higher education.
2. Olimov, T. (2020). Bo‘lajak oliv ma’lumotli mutaxasislarda fuqarolik madaniyatini shakllantirishning ayrim yo‘nalishlari. Integration of science, education and practice. Scientific-methodical journal, 1(1), 20-27.
3. Olimov, T. H. (2016). Formation of self-awareness in youth. Social and humanitarian sciences in the educational system.-Tashkent, 4.

4. Olimov, T. H. (2019). Spiritual and moral aspects of the formation of civil culture in future specialists of higher education. *Theoretical & Applied Science*, (12), 662-665.
5. Olimov, T. H. (2019). Development issues of civil society and culture in the work of Eastern thinkers. *Pedagogical skill-Bukhara*, 2.
6. Olimov, T. H. (2020). The image of a modern teacher in the formation of civic culture among future highly educated specialists. *Pedagogical skill-Bukhara*
7. Jalolov, T. S. (2023). СОЗДАНИЕ ПРОГРАММЫ ДЛЯ ИМИТАЦИИ ШИФРОВАНИЯ МАШИНЫ ENIGMA НА ЯЗЫКЕ PYTHON. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 317-323.
8. Jalolov, T. S. (2023). STUDY THE PSYCHOLOGY OF PROGRAMMERS. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 563-568.
9. Jalolov, T. S. (2023). Solving Complex Problems in Python. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(9), 481-484.
10. Jalolov, T. S. (2023). PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF DATA PROCESSING USING THE SPSS PROGRAM. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 2(23), 220-223.
11. Jalolov, T. S. (2023). ADVANTAGES OF DJANGO FEMWORKER. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 10(12).
12. Jalolov, T. S. (2023). ARTIFICIAL INTELLIGENCE PYTHON (PYTORCH). *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research*, 1(3), 123-126.
13. Jalolov, T. S. (2023). SPSS YOKI IJTIMOIY FANLAR UCHUN STATISTIK PAKET BILAN PSIXOLOGIK MA'LUMOTLARNI QAYTA ISHLASH. *Journal of Universal Science Research*, 1(12), 207–215.
14. Jalolov, T. S. (2023). THE MECHANISMS OF USING MATHEMATICAL STATISTICAL ANALYSIS METHODS IN PSYCHOLOGY. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 138-144.
15. Jalolov, T. S. (2023). PROGRAMMING LANGUAGES, THEIR TYPES AND BASICS. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 145-152.
16. Jalolov, T. S. (2023). PYTHON TILINING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 153-159.

17. Jalolov, T. S. (2023). PYTHON DASTUR TILIDADA WEB-ILOVALAR ISHLAB CHIQISH. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 160-166.
18. Sitora Akbarovna Ikromova. (2023). Formation of Ideological Immunity to Destructive Information. Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies (2993-2599), 1(9), 50–54.
19. Akbarovna, I. S. (2023). Study of the Formation of Ideological Immunity By Foreign and Russian Researchers. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(9), 235-239.
20. Akbarovna, I. S. (2023). Adolescence during Destructive Behavior Appearances the Problem Learning Condition. Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies (2993-2599), 1(9), 105-109.
21. Akbarovna, I. S. (2023). RESEARCH METHODS OF YOUTH PSYCHOLOGY. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 10(12).
22. Ikromova Sitora Akbarovna. (2023). NEUROPHYSIOLOGY BASIS OF HORMONES. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 68–77.
23. Akbarovna, I. S. (2023). Formation of Ideological Immunity to Destructive Information in Adolescents. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(10), 119-122.
24. Akbarovna, I. S. (2023). THE DEVELOPMENT OF CONSCIOUSNESS AND THE TEACHING OF CONCEPTS OF THE UNCONSCIOUS TO STUDENTS. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 107-114.
25. Ikromova, S. A. (2023). Cognitive processes and their description in psychology. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 115-133.
26. Akbarovna, I. S. (2023). SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF BEHAVIOR FORMATION IN ADOLESCENTS. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 184-191.
27. Akbarovna, I. S. (2023). NEGATIVE AND POSITIVE CHANGES IN ADOLESCENT BEHAVIOR. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 192-197.
28. Ikromova, S. A. (2023). FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF IMMUNITY TO DESTRUCTIVE IDEAS IN ADOLESCENTS. Innovation in Science, Education and Technology.